



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-yanvar

44-6-0-Q/25

Namangan viloyati hokimligi

Namangan viloyatida 2025-yilda davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2023-yil 14-dekabrda 660-son qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 30-dekabrda taklifi asos uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Namangan viloyatida 2025-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari **1-ilovaga**;

Sanoat zonalari hududlaridagi davlat ko‘chmas mulkini 2025-yilda ijaraga berishda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari **2-ilovaga** muvofiq;

Ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar **3-ilovaga** muvofiq;

Ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlarning hisoblash tartibi **4-ilovaga** muvofiq;

Viloyat markazi hamda shahar va tumanlar markaziy (birinchi darajali) ko‘chalar ro‘yxati **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasi (A.Axmadaliyev)ga qisqa muddatda viloyatdagi davlat tasarrufida bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlarini ijaraga berish yuzasidan avval tuzilgan ijara shartnomalariga mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

4. Shahar va tumanlar hokimliklariga hududlardagi davlat tashkilotlari va mahalla fuqarolar yigʻinlari bilan birgalikda balanslarida boʻlgan, foydalanilmay boʻsh turgan mulklardan samarali foydalanish, ularni ijaraga berish yuzasidan Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasiga doimiy taklif va maʼlumotlar kiritib borish vazifalari topshirilsin.

5. Viloyat hududiy boshqarma, shahar va tuman hokimliklari, shuningdek davlat mulkini balansida saqlovchi barcha muassasa va tashkilotlar rahbarlariga:

tasarrufidagi va quyi tuzim tashkilotlari tasarrufidagi davlat mulkini xatlovdan oʻtkazilishi va foydalanilmasdan boʻsh turgan va/yoki maqsadsiz, samarasiz foydalanilayotgan davlat mulki (qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan, umumiy foydalanishda boʻlmagan balansdagi yerlar) haqida har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha boʻlgan muddatda mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari koʻrsatilgan maʼlumotlarni;

quyi tizimlari tomonidan maʼlumotlarni toʻliq va oʻz vaqtida Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasiga belgilangan tartib va muddatlarda taqdim etilishi ustidan idoraviy nazoratni taʼminlasin.

Davlat Kadastrlar palatasi Namangan viloyati boshqarmasi (M.Tursunbayev):

2025-yil 1-fevral sanasiga qadar Markazning Namangan viloyati hududiy boshqarmasiga viloyat hududida mavjud davlat mulki obyektlarining yigʻma kadastr hujjatlarini elektron holatda taqdim etsin;

doimiy ravishda har chorak yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasiga qadar mavjud davlat mulki obyektlaridan yigʻma kadastr hujjatlariga oʻzgartirish (yangilangan) kiritilganlari toʻgʻrisidagi hujjatlarini elektron holatda taqdim etib borsin.

7. Viloyat hududida 2025-yilda davlat mulki boʻlgan binolar va xonalarda joylashgan budjet tashkilotlari uchun ijara toʻlovining “nol” stavkasi belgilansin.

8. Viloyat teleradiokompaniyasi (M.Maqsudov), “Namangan haqiqati” va “Namanganskaya pravda” gazetalariga Davlat aktivlarini boshqarish viloyat hududiy boshqarmasi hamda Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasining takliflari asosida viloyatdagi boʻsh turgan, ijaraga beriladigan davlat tasarrufidagi obyektlar roʻyxatini ommaviy axborot vositalari orqali bepul yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 29-yanvardagi 54-6-0-Q/24-son qarori oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror “Namangan haqiqati” va “Namanganskaya pravda” gazetalarida eʼlon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman eʼlon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abduhamidov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



Sh. Abdurazakov

Namangan viloyat hokimining
2025-yil 30-yanvardagi
44-6-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Viloyatning ma'muriy markazlari hududida va ma'muriy markazlaridan tashqari hududlarida joylashgan davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2025-yilda 1 kv.metr uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari (iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo'yicha)

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2025-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara toʻlovi stavkalari (QQS bilan birga) soʻmda	
		Namangan shahri va tarkibidagi tumanlarda	Tumanlarda
Ishlab chiqarish			
1	Ishlab chiqarish turlari boʻyicha (kimyo, neft, mashinasozlik, hisoblash texnikalari, traktorsozlik, maishiy anjomlar, sanitariya, metall, tamaki, elektronika va santexnika mahsulotlari va jihozlari)	16 000	11 300
2	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	50700	36 750
3	Elektr energiya ishlab chiqarish	16 000	11 300
Qurilish sanoati			
4	Qurilish mahsulotlari sanoati (asfalt, bitum, tosh saralash, shlakoblok, penablok, gazoblok, suvoq qorishmalari, gipsokarton, tunikafon, shifer, sement, senvich panel ishlab chiqarish va yogʻochni qayta ishlash)	16000	11 300
5	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yogʻochdan)	53300	34 550
6	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	84800	48 450
Yengil sanoat			
7	Yengil sanoat turlari boʻyicha (toʻqimachilik, tikuvchilik, charm, moʻyna, poyabzal, sellyuloza-qogʻoz sanoati)	16 000	11 300

Oziq-ovqat sanoati			
8	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (yogʻ, goʻsht, baliq, ichimlik, un, qandolat mahsulotlari hamda omuxta-yem sanoati)	16 000	11 300
9	Chorva (qoʻy) mollarini soʻyish va sotish (jumladan kushxona)	45200	32 500
10	Sut mahsulotlari sanoati	31 300	22 600
11	Non va qolipli (bulka) non mahsulotlari ishlab chiqarish	45200	28 200
Qishloq xoʻjaligi			
12	Oʻsimlikshunoslik (oʻrmon xoʻjaligi va bogʻlar) 1 gektar yer maydoni uchun	6 456 200	4 624 000
13	Issiqxona xoʻjaligi 1 gektar yer maydoni uchun	16 101 000	11 101 000
14	Chorva va parranda yetishtirish (boqish)	7 700	5 600
15	Baliqchilik (shu jumladan sunʼiy maydon) 1 gektar uchun	14 456 200	9 624 000
16	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	4 196 900	3 005 900
Transport va aloqa			
17	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil toʻxtash joylari va garaj)	16 000	11 300
18	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	8 200	4 050
19	Avtomobillarni yuvish	51 800	32 600
20	Avtomobillarga yoqilgʻi quyish (benzin, dizel)	56 500	42 100
21	Avtomobillarga yoqilgʻi quyish (gaz quyish shoxobchalari)	63 000	45 600
22	Elektromobillarni quvvatlash shoxobchasi	27 400	19 900
23	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini taʼmirlash va texnik xizmat koʻrsatish	51 700	36 900

24	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	39 300	28 400
25	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va transport xizmatlari	29 100	21000
26	Pochta va kuryerlik aloqasi	35 900	26 000
27	Elektr-simli aloqa (WIFI Router)	32 300	23 000
28	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	135 600	97 200
Savdo va umumiy ovqatlanish			
29	Ulgurji savdo	45 200	32 500
30	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	116 100	83 000
31	Chakana savdo	45 200	32 500
32	Sotuvchisiz elektron uskunalar orqali chakana savdoni tashkil etish	109 800	89 800
33	Umumiy ovqatlanish (Tabiiy va sun'iy suv havzalari hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari va taomlari savdosi, fast fud)	45 200	32 500
34	Kitob do'konlari	6 300	4 700
35	Lombardlar	58 400	41 800
Xizmat ko'rsatish			
36	Xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha (xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, nusxa ko'chirish, ko'chmas mulklar bilan bog'liq xizmatlar, reklama va ko'rgazmalar, geodeziya va gidrometeorologiya)	45 200	32 500
37	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	67 800	48 700
38	Mehmonxona xo'jaligi	51 700	36 900

39	Umumiy yashash joylari (shu jumladan talabalar va o'quvchilar turar joylari)	40 200	28 200
40	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari (veterinariya xizmatlari, kimyoviy tozalash va bo'yash, avtomobil, velosiped, samokatlarni ijaraga berish, paxta va jun tozalash va titish hamda ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish)	26 000	18 500
41	Mashina va uskunalarni ta'mirlash	16 000	11 300
42	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	35 900	26 000
43	Poligrafiya sanoati	39 300	32 500
44	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	35 900	26 000
45	Suv bo'yida xizmat ko'rsatish joylari (plyaj zonalari, baliq ovlash maskanlari, qayiqda suzish va suv sayohati va suv bo'yida turizm xizmatlarini tashkil etish)*	32 300	23 000
46	Quyosh panellari va suv isitish qurilmalar joylashtirish	7 700	5 600
47	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelezi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	38 900	28 200
48	Hammomlar	77 800	55 600
49	Saunalar va basseynlar	155 000	111 100
Turizm xizmatlari			
50	Madaniy meros obyektlarida hunarmandchilik turlari bo'yicha (misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	48 200	37 700
51	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	38 200	27 700

52	Madaniy meros obyektlarida hostel va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish	90 700	70 700
53	Madaniy meros obyektlarida savdo xizmatlarini ko'rsatish (esdalik buyumlari, sovg'alar, hunarmandchilik mahsulotlari va h.k)	70 800	50 800
54	Madaniy meros obyektlarida umumiy ovqatlanish shoxobchalari (restoran, kafe, fas-fud va h.k)	80 700	57 700
55	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka)	51 700	36 900
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot			
56	Davolash maskani (statsionar davolash)	32 300	23 000**
57	Davolash maskani (shu jumladan laboratoriya, operatsion blok, stamatologiya, fizioterapiya)	99 500	79 500
58	Tibbiy asbob uskunalari o'rnatish (massajlovchi stullar, MRT, UZI, MSKT, rentgen va boshqa qurilmalari)	123 100	103 100
59	Tibbiyot sanoati (Tibbiyot buyumlari, asbob uskunalari va dori vositalari ishlab chiqarish)	124 100	104 100
60	Fitobar	22 300	16 000
61	Dorixonalar (optika, tibbiyot anjomlari va jihozlari sotish)	54 400	29 200
62	Protez-ortopediya moslamalarini tayyorlash va ta'mirlash	32 300	23 000
63	Ijtimoiy-dorixonalar	23 000	15 000
Jismoniy tarbiya va sport			
64	Sport maydonlari (stadionlar)	29 300	24 300
65	Sport zallari (qo'l jangi, karate, kurash, sambo, erkin kurash va h.k)	16 000	11 300

66	Fitnes va yengil atletika zallari	128 000	108 000**
Ta'lim			
67	Nodavlat ta'lim tashkilotlari (oliy, o'rta va maktabgacha tarbiya muassasalari)	32 300	23 000
68	Tayyorlov kurslari (IT, malaka oshirish va repitetorlik)	53 300	38 600
69	Oliy ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	31 500	22 700
70	O'rta maxsus ta'lim muassasalarida (jumladan maktablarda) umumiy ovqatlanish	23 750	17 000
71	Madaniyat va san'at	45 200	32 500
72	Ko'rgazmalar	34 900	26 100
73	Madaniy dam olishni tashkil etish (bog'lar, zooparklar, televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari)	32 300	23 000
74	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	51 700	36 900
75	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	19 600	13 800
76	Avtomaktablar	28 650	16 400
77	O'quv amaliyot poligonlari (test tajriba va sinov maydonlari)	16 000	11 300
Moliya-kredit faoliyati			
78	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	45 200	32 500
79	Auditorlik faoliyati	45 200	30 400
80	Buxgalteriya va soliq servis xizmatlari	70 800	50 800
81	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	45 200	32 500
82	Bankomatlar	647 000	463 300
83	Paynetlar	129 700	92 750

84	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (kassalar)	129 700	92 750
85	Front-ofislar (Banklar uchun)	55 200	45 200
86	Bank xizmatlari ofisi	45 200	32 500
87	Sug'urta faoliyati	38 900	32 500
88	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	70 800	50 800
Faoliyatning boshqa turlari			
89	Notarial xizmatlar	45 200	32 500
90	Sud va yuridik xizmat muassasalari hamda advokatlar kollegiyasi	38 900	28 200
91	Jamoat birlashmalari	13 050	9 100
92	Omborxonalar	45 200	32 500
93	Davlat korxona va muassasalari	19 600	13 800
94	Xususiy tashkilotlarga ofis	70 800	50 800
95	Arxiv xizmati	19 600	11 550
96	Tahririyat va nashriyotlar	26 000	18 500
97	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	26 000	18 500
98	Laboratoriyalar (Tibbiy xizmatlardan tashqari)	32 300	23 000

Izoh: Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2023-yildagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 441-son qaroriga asosan qo'shilgan faoliyat turlari.

** Mazkur faoliyat turlari bo'yicha 4 va 5 toifadagi tumanlar hududidagi davlat mulki bo'lgan ijtimoiy soha obyektlarini faqat o'z faoliyat yo'nalishini saqlagan holda ijaraga berishda amaldagi minimal stavkaga nisbatan 50 foiz imtiyoz qo'llaniladi.

Namangan viloyat hokimining
2025-yil 30-yanvardagi
44-6-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Sanoat zonalari hududlaridagi davlat ko'chmas mulkini 2025-yilda ijaraga berishda 1 kv.metr
uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari**

so'm

T/R	Hudud nomi	Taklif etilayotgan narx (QQS bilan birga) (respublika tuman va shaharlari toifalari bo'yicha)				
		1-toifa (1 kv.m)	2-toifa (1 kv.m)	3-toifa (1 kv.m)	4-toifa (1 kv.m)	5-toifa (1 kv.m)
1	Namangan viloyati	225 600	191 760	157 920	124 080	112 800

Namangan viloyat hokimining
2025-yil 30-yanvardagi
44-6-0-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining
eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlar**

Obyektning joylashgan oʻrni va turlari boʻyicha	Qoʻllaniladigan koeffitsientlar		
	1-toifa	2- va 3-toifalar	4- va 5-toifalar
1. Ijara obyektini xududiy zonalar boʻyicha koeffitsient - (Kz)	2,2	2,0	1,6
1.1. Uyali aloqa qurilma va moslamalari uchun	1.8		
2. Obektning qurilish turi boʻyicha koeffitsient - (Kq)			
- alohida turadigan binolar boʻyicha	1,3	1,2	0,9
- bino ichida va bino yonida qurilganlari boʻyicha	1,0		0,8
- yarim yertoʻla va yertoʻla xonalari, cherdak, bolaxona qismlari boʻyicha	0,6		0,5
- binoning tom qismidagi qurilmalar boʻyicha	0,6		
3. Yondosh hududdagi yer maydondan (texnik maydon, dehqonchilik maqsadida) foydalanilgandagi koeffitsient - (Kh)	0,5		
3.1. Uyali aloqa antennalari egallagan texnik maydonlar uchun	0,6		
4. Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti - (Ko)	1,2	1,1	0,9
- binolarning tom qismidagi uyali aloqa antennalari oʻrnatilgan	0,6		

qurilmalar uchun	
------------------	--

- Yer maydoniga o'rnatilgan uyali aloqa, radio, peydjer antenna va boshqa qurilmalar uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi miqdori antenna tortqich qoziqlari umumiy perimetri bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi 660-sonli qaroriga muvofiq ijara haqining eng kam stavkasi va unga qo'llaniladigan tegishli koeffitsientlar asosida belgilanadi.

- Davlat tashkilotlarining texnik maydonidan foydalanuvchi sub'ektlar uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi 660-sonli qaroriga muvofiq ijara haqining eng kam stavkasi va qurilish turiga ko'ra belgilanadigan (K_q) koeffitsientlarni hisoblanmagan holda belgilanadi.

Bino va inshootlar bo'yicha ijara to'lovini (ijara to'lovining tayanch stavkasi) hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$Ts = Es \times Kz \times (Kq + Kh + Ko).$$

Ts-bir yilga bir kv.metr maydon uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi;

Es- bir yilga bir kv.metr maydon uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

Kz- hududiy zonalar koeffitsienti;

Kk-qurilish turi bo'yicha koeffitsient (alohida turgan bino, qo'shimcha qurilgan bino, binoning tom qismi, cherdak, bolaxona, yarim yerto'la, yerto'la);

Kh-tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti;

Ko-tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

Izoh:

1-toifa Namangan shahar, Davlatobod tumani, Yangi Namangan tumani.

2-toifa To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on tumanlari

3-toifa Kosonsoy, Namangan, Pop, Chortoq, Chust hamda Yangiqo'rg'on tumanlari

4-toifa Norin tumani

5-toifa Mingbuloq tumani

Namangan viloyat hokimining
2025-yil 30-yanvardagi
44-6-0-Q/25-son qaroriga
4-ilova

Ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlarning hisoblash tartibi

Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam miqdori quyidagicha hisoblab chiqiladi:

$$Ts=Es*Kz*(Kq+Kh+Ko)$$

Bunda:

Ts — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

Es — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

Kz — hududiy zonalar koeffitsienti;

Kq — Qurilish turi bo'yicha koeffitsient;

Kh — tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti;

Ko — tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

Qurilish turi bo'yicha koeffitsient (Kq), tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti (Kh) va tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (Ko)ning yig'indisi 1 birlikdan kam bo'lgan taqdirda, yaxlitlangan holda 1 birlikka teng hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan koeffitsientlar quyidagilarni ifodalaydi, jumladan:

- Hududiy zonalar koeffitsienti (Kz) – viloyat, tuman (shahar) markazlari hamda chekka hududlarning rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan koeffitsient;

- Qurilish turi bo'yicha koeffitsient (Kq) – davlat mulki obyektni yaxlit holatda yoki uning bir qismini (yertulasi, yarim yer to'lasi, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi) hamda obyektga biriktirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydoni bo'yicha belgilanadigan koeffitsient.

Bunda, ijaraga oluvchi davlat mulki obyektni to'liq ijaraga olganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qurilish turi bo'yicha alohida turgan bino koeffitsienti qo'llaniladi;

Ijaraga oluvchi davlat mulki obyektining bir qismini yertulasi, yarim yer to'lasini, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi yoki birlashtirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydonini ijaraga olganda va ushbu maydonlardan balansda saqlovchi bilan birgalikda foydalanilganda qurilish turi bo'yicha ko'effitsient ijaraga berilgan maydon obyektning joylashgan qismi asosida qo'llaniladi.

- Tutashib ketgan hududdan foydalanish ko'effitsienti (K_h) - ushbu ko'effitsient davlat mulki obyektini yaxlit holatda (to'liq) ijaraga berilganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qo'llanilmaydi qolgan holatlarda (obyektning bir qismi berilganda) qo'llaniladi.

Ushbu ko'effitsient qo'llanilmagan hollarda obyekt hududidagi betonlashtirilgan (asfaltlangan) maydonlari ijara maydoni sifatida shartnomaga kiritiladi va belgilangan tartibda to'lov undiriladi.

- Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik ko'effitsienti (K_o) - ushbu ko'effitsient obyekt joylashgan manzilining tijoriy faoliyat uchun qulaylik darajasini belgilaydi.

Bunda, ijaraga berilgan obyekt xalqaro va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llariga tutash hududlarda joylashgan bo'lsa asosiy avtotransport yo'lida joylashgan hisoblanadi. Mahallalar ichki ko'chalarida joylashgan bo'lsa ikkinchi darajali avtotransport yo'lida joylashgan hisoblanadi.

Namangan viloyat hokimining
2025-yil 30-yanvardagi
44-6-0-Q/25-son qaroriga
5-ilova

**Namangan viloyati shahar (tuman)larining markaziy (birinchi darajali)
ko'chalari ro'yxati**

T/r.	Shahar va tumanlardagi ko'chalar nomlari
<i>Namangan shahri</i>	
1.	A.Navoiy ko'chasi
2.	Amir Temur ko'chasi
3.	Boburshox ko'chasi
4.	Xamrox ko'chasi
5.	Ibrat ko'chasi
6.	Uychi ko'chasi
<i>Kosonsoy tumani</i>	
1.	"Gulobod" MFY Me'mor ko'chasi
2.	"Alisher Navoiy" MFY Halqlar do'stligi ko'chasi
3.	"Maxdumi A'zam" MFY Shoxchinor ko'chasi
4.	"Abdurahmon Jomiy" MFY Mug' qala ko'chasi
<i>Yangi Namangan tumani</i>	
1.	Afrosiyob ko'chasi
2.	Oromgox ko'chasi
3.	Islom Karimov ko'chasi
4.	Go'zal ko'chasi (Shimoliy aylanma)
5.	Chortoq ko'chasi
<i>Davlatobod tumani</i>	
1.	Islom Karimov ko'chasi
2.	G'alaba ko'chasi
3.	Ququmboyshox ko'chasi
4.	To'raqo'rg'on ko'chasi
<i>To'raqo'rg'on tumani</i>	
1.	Namangan ko'chasi
2.	Kosonsoy ko'chasi
3.	Chust ko'chasi

<i>Chust tumani</i>	
1.	“Kamarsada” MFY Charog‘on ko‘chasi
2.	“Pansada” MFY Chustiy ko‘chasi
3.	“Birlik (shaxar)” MFY Chustiy ko‘chasi
4.	“Serob” MFY Ipak yo‘li ko‘chasi
5.	“Guliston” MFY Ipak yo‘li ko‘chasi
6.	“Do‘stlik” MFY Ipak yo‘li ko‘chasi
<i>Pop tumani</i>	
1.	Mustaqillik MFY, Oybek ko‘chasi
2.	Obod MFY, Istiqlol ko‘chasi
3.	Iftixor MFY, Shabboda ko‘chasi
4.	Bodomzor MFY, Bodomzor ko‘chasi
5.	Xamid Olimjon MFY, Do‘stlik ko‘chasi
<i>Mingbuloq tumani</i>	
1.	Bog‘i eram ko‘chasi
2.	Ozodlik ko‘chasi
3.	Soxil bo‘yi ko‘chasi
<i>Norin tumani</i>	
1.	O‘zbekiston ko‘chasi
2.	Beruniy ko‘chasi
3.	Mustaqillik ko‘chasi
<i>Namangan tumani</i>	
1.	Mustaqillik 5 yilligi ko‘chasi
<i>Uchqo‘rg‘on tumani</i>	
1.	Ulug‘bek MFY Andijon ko‘cha
2.	Chek MFY Mustaqillik ko‘cha
3.	Do‘stlik MFY Do‘stlik ko‘cha
4.	Ulug‘bek MFY Mustaqillik ko‘cha
<i>Uychi tumani</i>	
1.	Navoiy MFY A. Temur ko‘chasi
2.	Beruniy MFY A. Temur ko‘chasi
3.	Bog‘ MFY Beruniy ko‘chasi
<i>Chortoq tumani</i>	
1.	Namangan MFY Mustaqillik shox ko‘chasi
2.	Namangan MFY Namangan ko‘chasi

3.	Komillik MFY Boburshox ko'chasi
4.	A.Navoiy MFY Istiqlol xiyoboni ko'chasi
5.	A.Navoiy MFY M.Ulug'bek ko'chasi
<i>Yangiqo'rg'on tumani</i>	
1.	Beshbuloq MFY, Namangan ko'chasi
2.	Beshbuloq MFY, Chortoq ko'chasi
3.	Qutlug'tol MFY, Chortoq ko'chasi
4.	Ibrat MFY, Zarkent ko'chasi
5.	Yuksalish MFY, Amir Temur ko'chasi

Namangan viloyat hokimining
2025-yil 30-yanvardagi
44-6-0-Q/25-son qaroriga
6-ilova

**Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini viloyat Adliya boshqarmasidan huquqiy
ekspertizadan o'tkazish uchun
MA'LUMOTNOMA**

2025-yil 23-yanvar

Namangan shahri

Namangan viloyati hokimligining yuridik xizmati yuriskonsulti J.Musayev tomonidan viloyat hokimining "Namangan viloyatida 2025-yilda davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, unga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning talablariga muvofiqligi, shu jumladan ushbu normativ-huquqiy hujjat loyihasida havola qiluvchi normalar qo'llanilishining asoslilikiga hamda maqsadga muvofiqligi jihatidan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Viloyat hokimining ushbu qarori loyihasi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy xujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 21-24-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2021-yil 15-noyabrda 19-mh-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3333) bilan tasdiqlangan "Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish, huquqiy ekspertizadan o'tkazish" Qoidalari talablariga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Loyiha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2023-yil 14-dekabrda 660-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 30-dekabrda taklifini inobatga olib, ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 33-bandiga asosan har yili 15 dekabrgacha davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarining kelishilgan hisob-kitoblari O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tasdiqlash uchun tegishlilikicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga yuborilishi, Nizomning 34-bandiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli koeffitsiyentlar belgilangan holda har yili 31-dekabrgacha tasdiqlanishi qayd etilgan.

Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarining Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan hisob-kitoblari (2024-yil 30-dekabr 01/23-18/1276-son, 02/29-27269-son) O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tasdiqlash uchun viloyat hokimligiga yuborilgan.

Shuningdek, mazkur qaror loyihasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qonun hujjatlarining tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2014-yil 2-dekabrda 328-son qarori talablariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari muhokamasi portalida muhokama qilish uchun 2025-yil 7-yanvar kuni joylashtirilgan va 2025-yil 22-yanvar kuni muhokamasi yakunlangan (ID-105526).

Qaror loyihasining jamoatchilik muhokamasi jarayonida takliflar kelib tushmagan.

Loyihaning idoraviy kelishuvi jarayonida e'tirozlar kelib tushmagan.

Loyihada korrupsiya, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tizimida huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratuvchi, shuningdek tadbirkorlik subyektlari uchun ortiqcha ma'muriy hamda o'zga cheklavlarni joriy etuvchi, tadbirkorlik subyektlarining asossiz xarajatlari yuzaga kelishiga olib keluvchi qoidalar va normalar aniqlanmadi.

Namangan viloyati hokimining "Namangan viloyatida 2025-yilda davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu qaror loyihasi qonunchilik texnikasi talablariga javob beradi.